

LINGVOKULTUROLOGIYANING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLARI

G'anisher JO'RAYEV

*O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti Ingliz tili amaliy
fanlar № 1 kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslikda lingvistika va madaniyatshunoslik o'rtasida vujudga kelgan yangi mustaqil fan – lingvokulturologiyaga bag'ishlangan. U xalqlar madaniyatining vujudga kelish tarixi va uning tilda aks etish qonuniyatlarini o'rganadi. Lingvokulturologiya XX asr oxirlariga kelib tilshunoslikda antropologik paradigmalar mahsuli sifatida maydonga chiqqan. Lingvokulturologiyaning asoschisi V. fon Gumboldt hisoblanib, uning tadqiqoti til harakteri va millat harakterining o'zaqo aloqadorligiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, til, madaniyat, lisoniy tafakkur, psixolingvistika, antropologik paradigma.

Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spesifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan tilshunoslikning yangi sohasi - lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Til, madaniyat, etnosning o'zaro munosabati va aloqasi masalasini o'rganish fanlararo muammo hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimini falsafa va sotsiologiyadan tortib, etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha bo'lgan bir necha fanlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilangina hal qilish mumkin. Masalan, lisoniy tafakkurning etnik masalalari bilan lingvistik falsafa, etnik, ijtimoiy yoki guruhlar muloqotining o'ziga xos lisoniy jihatlari bilan psixolingvistika, til va madaniyatning o'zaro aloqasini o'rganish bilan lingvokulturologiya shug'ullanadi.

Lingvokulturologiya - lingvistika va madaniyatshunoslik o'rtasida vujudga kelgan yangi mustaqil fan. U xalqlar madaniyatining paydo bo'lish tarixi va uning tilda aks etish qonuniyatlarini o'rganadi. Lingvokulturologiya XX asr oxirida lingvistikada antropologik paradigmalarni mahsuli sifatida maydonga kelgan, deb qaraladi. Uning boshlanishi, asosan, V. fon Gumboldt nomi bilan bog'liq. Uning tadqiqoti til harakteri va millat xarakterining o'zaro aloqadorligiga bag'ishlangan. Tadqiqotlar natijasida turli tillar o'z mohiyati, ongda ifodasi jihatidan turli dunyoqarashlarni aks ettirishini ko'rish mumkin. Til xususiyatlarida millat xakteri namoyon bo'ladi, shuning uchun tilning chuqur tadqiq qilinishida barcha jihatlar qamrab olinishi muhim va zarur. Gumboldt qarashlarining yangiligi shunda ediki, olim turli xil til shakllarini o'rganish mobaynida borliqni anglash va tafakkur qilish jarayonidagi turli-tumanliklar va farqlarni ajratdi hamda tilda madaniyat o'ziga xos tarzda aks etadi, degan xulosaga keldi. XIX asrda olimning ilmiy merosi A.A. Potebnya tomonidan "til faoliyat sifatida" shaklida rivojlantirildi. Yevropada XX asrning o'rtalarida uning qarashlarini L. Veysgerber, X. Glins, X. Xols kabi olimlar davom ettirdilar. Ular tafakkur hamda fikr mantiqiy ko'rilishining til struktur xususiyatlari bilan bog'liq ekanligi masalasini tadqiq qilishgan. Dunyo tilshunosligida lingvokulturologiyaning nazariy - metodologik asosi V.V. Vorobevning "Lingvokulturologiya: nazariya va metodlar" deb nomlangan tadqiqotida to'liqroq ochib berilgan. Tadqiqot Gumboldt an'alariga tayangan holda amalga oshirilgan. Unda L. Veysgerber kiritgan terminologiyadan foydalanilib, lingvokulturologiya lingvomamlakatshunoslikning nazariy bazasi sifatida baholangan. Tadqiqotchi "madaniyat bilan tilning o'zaro aloqadorligi va yagona maqsadlar sistemasini ifodalashini o'rganish"ni lingvokulturologiyaning asosiy obekti deb ko'rsatadi va ularni o'rganishda semantika, sigmatika, sintaktika va pragmatika birlashuvchi metodlardan foydalanishni tavsiya qiladi.

Mamlakatshunoslik va etnolingvistikadan farqli ravishda lingvokulturologiya obektlarni to'liq nazariy-tasviriy tadqiq qiladi, ularning tilda ko'rinadigan madaniy qiymatini belgilaydi, turli tillardagi lingvokulturologik jihatlarning tahlilida lisoniy

nisbiylik nazariyasi (Ye. Sepir - B. Uorf gipotezasi) ga tayanadi. Lingvokulturologiyaning rivojlanish davrini ikkiga bo'lish mumkin: birinchi davr - fanning paydo bo'lish davri. Bu, asosan, V. Gumboldt, Ya. Grimm, A.A. Potebnya, E. Sepir ishlarida o'z aksini topgan. Ikkinchi davr - lingvokulturologiyaning mustaqil fan, deb tan olinish davridir. Bu o'rinda lingvokulturologiya tushunchasi ilk bor V.V. Vorobyev, V.N. Teliya va V.A. Maslova ishlarida qayd etilganligini aytib o'tish joiz. Shuningdek, lingvokulturologiyaning quyidagi yo'nalishlari mavjud: 1). Ijtimoiy guruhlar, xalqlar madaniyatini lingvokulturologik kontekst (vaziyat) larini tadqiq qilish 2). Qiyosiy lingvokulturologiya. Bu soha bir necha ishlardagina o'z aksini topgan, xolos 3). Diaxronik lingvokulturologiya davr o'tishi bilan xalqlarning lingvokulturologik holatining rivojlanishini o'rganadi 4). Lingvokulturologik leksikografiya - shu sohaga oid lug'atlar tuzish bilan shug'ullanadi.

Lingvokulturologiyaning tadqiqot ob'yektlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: lingvomamlakatshunoslik lingvokulturologiyaning bir qismi bo'lib, quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi: (1) muqobilsiz leksika va xos so'zlar (realiya), (2) mifologiya, urf - odat, an'ana, marosimlar, (3) metafora, tilning tasviriy va obrazli vositalari, (4) frazeologik birliklar, (5) tildagi etalon, stereotip va ramziy vositalar, (6) nutq madaniyati, nutq odobi (V. Vorobyev, V. Maslova). Har bir xalqning o'ziga xos turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni quyidagicha tasniflash mumkin: a) muayyan geografik hudud (davlat, shahar, qishloq, ko'cha, maydon) nomi bilan bog'liq xos so'zlar; b) etnografiyaga doir xos so'zlar: kiyim-kechak, oziq-ovqat, urf - odat, to'y marosimlari va b. (S. Florin, S. Vlasov, I.K. Mirzayev).

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "lingvokulturologiya" termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V. fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A. Potebnya, L. Vaysgerber, X. Glins, X. Xols, U.D. Uitni, D.U. Pauell, F. Boas, E.

Sepir, B.L. Uorf, G. Brutyan, A. Vebiskaya, D. Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojlanishini 3 bosqichga ajratadi: 1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi; 2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi; 3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi. XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N. Teliya bu haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir". G.G. Slisshkinning fikriga ko'ra, "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson xaqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli xodisa ekanligidan dalolat beradi". Lingvokulturologiyaning o'rganish ob'yekti haqidagi fikrlar borasida bir to'xtamga kelingan bo'lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo'q emas. Masalan, V.N. Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A. Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi, deb hisoblaydi. Shuningdek, V.N. Teliya lingvokulturologiya ob'yekti umuminsoniy harakterga ega bo'lishini ta'kidlasa, V.A. Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi kerakligini ta'kidlaydi. Bugungi kunga kelib lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gumboldt V.fon. Yazik i filosofii kulturi. – M.: Progress, 1985. P. 465.
2. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya (Teoriya i metodi). –M., 1997. P. 87.

3. Veysgerber Y.L. Yazik i filosofiya // Voprosi yazikoznaniya. – 1993. №2.
4. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekti. –M.: Shkola: Yaziki russkoy kulturi, 1996. P. 288.
5. Maslova V.V. Lingvokulturologiya v sisteme gumanitarnogo znaniya / Kritika i semiotika. Vip.7. – 2004. P. 238-243.
6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. M.: Academia, 2001. P. 208.
7. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekti.–M.:Shkola “yaziki russkoy kulturi”, 1996 p-222.

NUTQIY ETIKETNING NAZARIY TADQIQ TAMOYILLARI

Hamida JABBOROVA

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolaning asosiy e'tibori radiomuloqotda xushmuomalalik meyorlariga nisbatan farqlanishiga va voqealanishiga qaratilgan. Boshqa tillar kabi o'zbek tilida ham nutqiy etiket formulalari ya'ni hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalarning tuzilishi, vazifasi, semantik xususiyatlari va qo'llash jihatlarining tahlili lisoniy va nutqiy vositalarga ega bo'lgan nafaqat ijtimoiy-ijobiy sub'yektiv ma'no ekanligi balki madaniy mazmun-mohiyat nutqtayi nazaridan qaraladi.

Kalit so'zlar. Nutqiy etiket, nazariy tadqiq tamoyillari, lingvokulturologiya, psixologik makon, leksik ma'no, madaniy component, lisoniy me'yor.

Muayyan madaniyat doirasida nutqiy etiket nazariyasi ijtimoiy harakatlarning vaziyat, hudud va muloqotning kim tomonidan amalga oshirilishiga qarab lingvistik qurilmalardan foydalanishini taxmin qiladi. «Madaniyatlar shaxslararo makonning tegishli miqdori («hududiylik») bo'yicha standartlarda farqlanganidek, xushmuomalalik «psixologik makon»ga mos keladi va bu yerda madaniyatlar ham differensial meyorlarga ega»¹³¹. Albatta, bu hurmat ma'nosini asosiy kategoriyasi sifatida nutqiy etiket formulalarini tashkil qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tillarda nutqiy etiket formulasiga ijtimoiy lisoniy hodisa sifatida qaraladi hamda u o'z leksik-grammatik vositalariga va ifodalanish

¹³¹ Hall, E. T. (1966). The hidden dimension. New York: Doubleday. 256 p.